



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 202 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
Ibraymova Altinay Esemuratovna	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
Abdiraximova Dildora Begimkulovna	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar.....	20
Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
Sultonov Mansur G'aniyevich	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar.....	41
Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi	
Biologiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari.....	44
Joldasbayeva Gulchexra Maksetbayevna	
Organik fotoelementlarning moslashuvchanligini oshirish.....	49
Jalolova Pokiza Muzaffarovna	
Dzyudo sport turida texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi.....	54
Ko'palov Sanjar Ulug'bekovich	
Interactive Methods for Developing Sociolinguistic Competence in Higher Education	59
Baxramova Diyora Sanjar qizi	
Texnika yo'nalishi talabalarini ishlab chiqarish muhitiga tayyorlashda CDIO va sanoat korxonalari hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	66
Gaffarov Xasan Ravshanovich	
Onkologik bemorlarga tashxisni bildirish madaniyati va uning psixologik oqibatlari (O'zbekiston misolida)...	70
Jonpo'lotova Manzura Jahonovna	
Malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning SOFT-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi.....	75
Axrorova Umida Xamidullayevna	
Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi	81
Sadikova Shaxnoza Ulug'bek qizi	
Loyihaviy faoliyat asosida talabalarda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari	87
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Biologiya fanini o'qitishda biologiya (maxsus pedagogika: logopediya) yo'nalishi talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	91
Hakimova Musharraf Fozilovna, Hasanova Zebo Davlatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bolalar adabiyotining didaktik imkoniyatlari	96
Homiyatova Mavluda Amon qizi	
Boshlang'ich sinflarda raqamli ta'lim muhitini yaratish va interaktiv metodlardan foydalanish	101
Karimova Nargiza Raximovna	



Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar asosida bolalarning soft skillsini rivojlantirish: interaktiv va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar	109
Mamatqulova Nozimaxon Shavkat qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion pedagogik faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish: kvazi-eksperimental tadqiqot	116
Nozimabonu Tojiboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	124
Abduraxmonova Gulandam Anvarjonovna	
Funksional yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishning ustuvor jihatlari	130
Safarov Dilmurod Zoirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda o'qish savodxonligining ahamiyati	135
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish asosida matematika fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi	140
Sultonova Shahnoza Yusuf qizi	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasini yosh omili asosida takomillashtirish	147
Akhmadaliyeva Nargizakhon Abdumalik qizi	
Tengdoshlar bilan munosabat sifatiga oilaviy muhitning bilvosita ta'siri	153
Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi	
Bolalar kiyimlari va ular bilan bog'liq urf-odatlar (Buxoro vohasi misolida)	156
G'iyosova Zarina Yusuf qizi	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligi rivojlanganlik darajalarini kvalimetrik shkala asosida baholash	160
Niyozova Shahlo Abdusaitovna	
Bionika asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali metodlari	167
Jumaboyeva Maxliyo Rashidbek qizi	
Talabalarning bilish faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari	172
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
Kredit-modul ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'limini neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etishning pedagogik-didaktik tamoyillari	178
Farrux O'. Ibragimov	
Kichik maktab yoshdagi bolalarning o'quv faoliyatiga moslashishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	185
G'ofurova Madina Ikromjon qizi	
Rashk muammosining ijtimoiy-psixologik mazmun-mohiyati	189
Ummatova Sitora Shavkatulloyevna	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy aspektlari	196
Salayeva Sitora Sherali qizi	

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA AXBOROTNI TANQIDIY TAHLIL QILISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY- NAZARIY ASPEKTLARI

Salayeva Sitora Sherali qizi
Turon universiteti bitiruvchisi

Annotatsiya: So'nggi yillarda raqamli axborot makonining jadal kengayishi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda axborot bilan ishlash, uni saralash, mazmunan tahlil qilish va ishonchlilik darajasini aniqlash ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari ushbu maqolada yoritiladi. Tadqiqotda axborot-kommunikatsiya kompetensiyasining mazmuni, uning bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligidagi o'rni hamda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasi bilan uzviy aloqasi tahlil qilinadi. Shuningdek, axborotni izlash, turli manbalarni qiyoslash, dalillarni baholash, yolg'on yoki ishonchsiz ma'lumotlarni farqlash, axborotni tizimlashtirish va undan pedagogik maqsadlarda oqilona foydalanish jarayonlari kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan asoslanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, mustaqil ta'lim va muammoli vaziyatlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ham ochib beriladi. Tadqiqot natijalari bo'lajak pedagoglarni zamonaviy axborot muhitida mustaqil fikrlaydigan, axborotni ongli ravishda baholaydigan va undan kasbiy faoliyatida samarali foydalana oladigan mutaxassis sifatida tayyorlash zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi, tanqidiy tahlil, axborot savodxonligi, axborot bilan ishlash, raqamli ta'lim, axborot resurslari, axborotni baholash, tanqidiy fikrlash, pedagogik kompetensiya, raqamli kompetentlik, axborot madaniyati.

Abstract: In recent years, amid the rapid expansion of the digital information environment, our study examines the scientific and theoretical foundations for developing future teachers' skills in working with information, selecting relevant materials, analyzing their content, and determining their reliability. The study analyzes the content of information and communication competence, its role in the professional training of future teachers, and its close relationship with the ability to critically analyze information. Furthermore, from the perspective of the competency-based approach, particular attention is given to the processes of information retrieval, comparison of different sources, evaluation of evidence, identification of false or unreliable information, systematization of information, and its rational application for pedagogical purposes. The study also highlights the pedagogical potential of digital technologies, interactive methods, self-directed learning, and problem-based situations in developing future teachers' competence in working with information. The findings demonstrate the need to prepare future educators as professionals who can think independently in the contemporary information environment, consciously evaluate information resources, and effectively apply them in their professional practice.

Key words: future teacher, information and communication competence, critical analysis, information literacy, information management, digital education, information resources, information evaluation, critical thinking, pedagogical competence, digital competence, information culture.



Аннотация: В последние годы в условиях стремительного расширения цифрового информационного пространства в нашей статье освещаются научно-теоретические основы развития у будущих учителей навыков работы с информацией, её отбора, содержательного анализа и определения степени её достоверности. В исследовании анализируются содержание информационно-коммуникационной компетентности, её роль в профессиональной подготовке будущего педагога, а также взаимосвязь с навыками критического анализа информации. Кроме того, с позиций компетентностного подхода обосновываются процессы поиска информации, сопоставления различных источников, оценки доказательств, выявления ложной или недостоверной информации, систематизации информационных материалов и их рационального использования в педагогических целях. Раскрываются также педагогические возможности применения цифровых технологий, интерактивных методов, самостоятельного обучения и проблемных ситуаций в развитии компетентности будущих учителей в работе с информацией. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости подготовки будущих педагогов как специалистов, способных самостоятельно мыслить в современной информационной среде, осознанно оценивать информационные ресурсы и эффективно применять их в профессиональной деятельности.

Ключевые слова: будущий учитель, информационно-коммуникационная компетентность, критический анализ, информационная грамотность, работа с информацией, цифровое образование, информационные ресурсы, оценка информации, критическое мышление, педагогическая компетентность, цифровая компетентность, информационная культура.

KIRISH

Ta'limning raqamlashtirilishi, elektron o'quv-metodik resurslar, virtual ta'lim muhiti va turli raqamli platformalarning keng qo'llanilishi axborot bilan ishlash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Biroq axborot resurslarining ko'payishi bilan bir qatorda ularning mazmuniy sifati, ishonchligi va pedagogik qiymatini aniqlash muammosi ham dolzarblashmoqda. Shu sababli bo'lajak o'qituvchi har qanday ma'lumotni tayyor bilim sifatida qabul qilmasdan, uning manbasini aniqlashi, bir nechta manbalar bilan qiyoslashi, dalillarga asoslanganligini tekshirishi va xolis xulosa chiqarishi lozim.

Bunday yondashuv axborot savodxonligi bilan bir qatorda tanqidiy fikrlashning ham rivojlanganligini talab etadi. Mamlakatimizda ta'lim tizimini raqamli transformatsiya qilish, elektron o'quv-metodik resurslar bazasini kengaytirish va pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-6079-son¹ qarori ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim huquqiy asoslardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur jarayon bo'lajak o'qituvchilarning zamonaviy axborot muhitida faoliyat yuritishga tayyorgarligini kuchaytirish bilan birga, ularda axborotni mustaqil izlash, qayta ishlash va tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirish zaruratini ham yuzaga keltirmoqda. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda axborot kompetentligiga turlicha yondashuvlar mavjud. O. B. Zaytseva, L. K. Raitskaya, A. L. Semenov, P. V. Sysoev kabi tadqiqotchilar axborot kompetentligini kasbiy va ta'limiy vazifalarni bajarishda zarur axborotni mustaqil izlash, tanlash, qayta ishlash va undan samarali foydalanish bilan bog'laydilar.

Mahalliy tadqiqotchilar A. T. Kurbanova hamda Sh. A. Urazmetovanning ishlarida esa talabalarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, raqamli resurslardan foydalanish, ularni modellashtirish va kasbiy faoliyatga yo'naltirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Mazkur yondashuvlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, axborot kompetensiyasi faqat texnik vositalardan foydalanish qobiliyati bilan chegaralanmaydi; u axborotni anglash, tahlil qilish, tanqidiy baholash va undan asoslangan qaror qabul qilishda foydalanish kabi intellektual faoliyatlarni ham qamrab oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak o'qituvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish masalasi axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi, axborot savodxonligi, raqamli kompetentlik va tanqidiy fikrlash tushunchalari bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur muammo dastlab axborotni izlash va undan foydalanish ko'nikmalari doirasida talqin qilingan bo'lsa, raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi natijasida axborotning ishonchligini aniqlash, turli manbalarni qiyoslash, dalillarni baholash va asoslangan xulosa chiqarish kabi yuqori darajadagi intellektual faoliyatlar ham axborot kompetensiyasining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Xorijiy tadqiqotchilar O. B. Zaytseva, L. K. Raitskaya, A. L. Semenov va P. V. Sysoevning ilmiy qarashlarida axborot kompetensiyasi shaxsning zarur ma'lumotlarni mustaqil izlash, tanlash, qayta ishlash, tizimlashtirish va kasbiy faoliyatda samarali qo'llash qobiliyati sifatida izohlanadi.

¹ <https://lex.uz/docs/5030957>



Xususan, O. B. Zaytseva bo'lajak o'qituvchilarda axborot kompetentligini innovatsion texnologiyalar vositasida shakllantirish imkoniyatlariga e'tibor qaratadi. Uning yondashuvida axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat texnik ko'nikmalarni egallash, balki pedagogning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish vositasi sifatida qaraladi. Bizningcha, ushbu qarash bo'lajak o'qituvchining axborot bilan ishlash jarayonida texnologik savodxonlikdan tashqari tahliliy yondashuvni ham shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

P. V. Sysoev va M. N. Yevstigneyev tadqiqotlarida mutaxassislarning axborot kompetensiyasini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilib, axborot texnologiyalaridan ta'lim va kasbiy faoliyatda foydalanish imkoniyatlari asoslanadi. Mazkur qarashlar axborot bilan ishlashni uzluksiz jarayon sifatida baholash imkonini beradi. Ya'ni, bo'lajak o'qituvchi axborotni faqat qabul qiluvchi emas, balki uni izlovchi, qayta ishlovchi, baholovchi va pedagogik maqsadga muvofiq ravishda qayta tashkil etuvchi faol subyekt sifatida shakllanishi zarur.

MDH mamlakatlari olimlari V. I. Baydenko, E. Zeyer, I. A. Zimnyaya, A. V. Xutorskoy kabi tadqiqotchilarning ishlarida kompetensiyaviy yondashuvning mazmuni, kompetensiya va kompetentlikning tarkibiy xususiyatlari keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida kompetentlik faqat bilimlarning mavjudligi bilan emas, balki o'zlashtirilgan bilimlarni turli amaliy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Mazkur nazariy yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki axborotni tanqidiy baholash ham tayyor bilimni egallashdan ko'ra, mavjud ma'lumotni muayyan vaziyatda mustaqil tekshirish va undan asoslangan xulosa chiqarishni talab etadi.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilgan. A. T. Kurbanovanning tadqiqotlarida talabalarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari, uning tuzilishi, komponentlari, rivojlanish omillari va pedagogik texnologiyalari tadqiq etilgan. Olimaning yondashuvi bo'lajak mutaxassisning axborot muhitida samarali faoliyat yuritishi uchun kompleks pedagogik sharoitlarni yaratish zarurligini asoslaydi. Bizningcha, mazkur yondashuvni tanqidiy tahlil ko'nikmasi bilan boyitish bo'lajak o'qituvchining axborotga nisbatan mustaqil va refleksiv munosabatini kuchaytiradi.

Shuningdek, G. A. Larionovanning kasbiy tayyorgarlik haqidagi qarashlarida bilim va ko'nikmalar bilan bir qatorda shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorligi, motivatsiyasi, munosabati va kasbiy ahamiyatga ega sifatlari ham muhim komponent sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv axborotni tanqidiy tahlil qilishni faqat aqliy operatsiya sifatida emas, balki bo'lajak pedagogning mas'uliyatli kasbiy pozitsiyasi bilan bog'liq kompetensiya sifatida talqin qilish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy aspektlarini aniqlashga yo'naltirilgan kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar tashkil etdi. Ushbu yondashuvlarning uyg'unligi bo'lajak o'qituvchining axborot bilan ishlash jarayonini faqat texnik ko'nikma sifatida emas, balki kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan intellektual, tahliliy va amaliy kompetensiya sifatida tadqiq etish imkonini berdi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchining axborotni izlash, tanlash, saralash, qayta ishlash, manbalarni taqqoslash, axborotning ishonchligini baholash va undan pedagogik faoliyatda foydalanish imkoniyatlari o'rganildi. Mazkur yondashuv axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini kasbiy kompetentlikning tarkibiy elementi sifatida belgilashga xizmat qildi.

Tizimli yondashuv yordamida axborotni tanqidiy tahlil qilish jarayonining tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqildi. Bunda axborotni izlash, aniqlash, saralash, qiyoslash, baholash va xulosa chiqarish bosqichlari yagona pedagogik tizim sifatida talqin qilindi. Mazkur yondashuv orqali bo'lajak o'qituvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik shart-sharoitlar ham aniqlandi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabaning individual imkoniyatlari, mustaqil fikrlashi, axborotga munosabati va kasbiy qiziqishlarini hisobga olishga asoslandi. Ushbu yondashuv doirasida bo'lajak o'qituvchining tayyor axborotni qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil izlovchi, tahlil qiluvchi, baholovchi va amaliy jihatdan qo'llovchi faol subyekt sifatida shakllanishiga e'tibor qaratildi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv esa axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini amaliy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, mustaqil izlanishlar va raqamli ta'lim resurslari bilan ishlash jarayonida rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi. Bunda bo'lajak o'qituvchilarning real pedagogik vaziyatlarda axborotdan foydalanish, turli manbalarni qiyoslash va asoslangan qaror qabul qilish faoliyati muhim mezon sifatida belgilandi.

Tadqiqot davomida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, modellashtirish hamda pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali axborot kompetensiyasi, axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi, axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash tushunchalarining ilmiy mazmuni o'rganildi.



Qiyosiy tahlil yordamida mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning mazkur muammoga oid qarashlari o'zaro solishtirildi. Analiz va sintez metodlari orqali axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasining asosiy tarkibiy jihatlari ajratib olindi va yagona ilmiy tizimga birlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida bo'lajak o'qituvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish jarayoni axborot-kommunikatsiya kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida tahlil qilindi. O'rganilgan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim muhitida pedagog uchun faqat axborot texnologiyalaridan foydalanishni bilishning o'zi yetarli emas. O'qituvchi turli manbalardan olingan ma'lumotlarni izlash, ularni saralash, qiyoslash, mazmunini anglash, ishonchligini aniqlash va pedagogik faoliyat uchun maqbul bo'lgan axborotni tanlay olish qobiliyatiga ham ega bo'lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi texnik ko'nikmalar bilan cheklanmay, axborotga nisbatan ongli, mas'uliyatli va tahliliy munosabatni ham qamrab oladi.

Tahlillar natijasida bo'lajak o'qituvchining axborot bilan ishlash faoliyati bir necha o'zaro bog'liq jarayonlardan tashkil topishi aniqlandi. Dastlab talaba o'zining axborot ehtiyojini belgilashi va izlanish maqsadini aniqlashi lozim. Keyingi bosqichda tegishli axborot manbalarini topish, ularning mazmunini o'rganish va zarur ma'lumotlarni ajratib olish amalga oshiriladi. Bunda internet resurslari, elektron kutubxonalar, ilmiy maqolalar, raqamli ta'lim platformalari va boshqa axborot manbalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq manbaning mavjudligi uning ishonchli ekanligini anglatmaydi. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchi axborotning muallifi, kelib chiqish manbasi, ilmiy asoslanganligi, dalillar bilan ta'minlanganligi va boshqa manbalar bilan muvofiqligini tekshira olishi kerak.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasi, avvalo, turli ma'lumotlarni qiyoslash orqali shakllanadi. Masalan, biror pedagogik masala bo'yicha internetdan olingan ma'lumotni ilmiy maqola yoki darslikdagi ma'lumot bilan solishtirish talabning axborotga nisbatan tanqidiy munosabatini rivojlantiradi. Bir-biridan farq qiluvchi fikrlarni aniqlash, ularning daliliy asoslarini o'rganish va eng maqbul xulosani shakllantirish esa mustaqil fikrlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada talaba tayyor ma'lumotni shunchaki qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi va baholovchi faol subyektga aylanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda mazkur ko'nikmani rivojlantirishda muammoli ta'limning imkoniyatlari ham yuqori ekanligi aniqlandi. Muammoli vaziyatlar orqali talabaga bitta masala yuzasidan turli xil axborotlar taqdim etilishi va ulardan asoslangan xulosa chiqarish talab qilinishi mumkin. Bunday topshiriqlar jarayonida talaba ma'lumotlarning mazmunini o'rganadi, muhim va ikkilamchi jihatlarni ajratadi, qarama-qarshi fikrlarni tahlil qiladi hamda o'z nuqtayi nazarini dalillar asosida himoya qilishga o'rganadi. Shu sababli muammoli ta'lim axborot bilan ishlashning reproduktiv shaklidan tahliliy va ijodiy faoliyatga o'tishni ta'minlaydi.

Tahlil natijalariga ko'ra, interfaol metodlardan foydalanish ham bo'lajak o'qituvchilarning axborotni tanqidiy baholash imkoniyatlarini kengaytiradi. Xususan, munozara, "aqliy hujum", keys-stadi, loyiha metodi, bahs-munozara va guruhli tahlil kabi usullar talabalarning turli axborot manbalari bilan ishlashiga sharoit yaratadi. Ayniqsa, muayyan masala bo'yicha qarama-qarshi fikrlarni asoslash va himoya qilish jarayonida talabalar axborotning mazmuniga chuqurroq e'tibor qaratadilar. Bu esa ularning mantiqiy fikrlashi, dalillarni tahlil qilishi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tadqiqotda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari ham alohida ko'rib chiqildi. Raqamli ta'lim muhiti bo'lajak o'qituvchiga katta hajmdagi axborot bilan ishlash imkonini beradi. Shu bilan birga, axborot oqimining haddan tashqari ko'pligi noto'g'ri yoki ishonchsiz ma'lumotlardan foydalanish xavfini ham kuchaytiradi. Shuning uchun raqamli vositalardan foydalanish jarayonida axborotni tekshirish, manbalarni qiyoslash, mualliflik va ilmiylik mezonlariga e'tibor qaratish muhimdir. Bu holat raqamli kompetentlik bilan tanqidiy fikrlashning o'zaro bog'liqligini namoyon etadi.

O'rganilgan ilmiy qarashlar asosida bo'lajak o'qituvchining axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'lishi aniqlandi: axborotni izlash va topish, axborotni tahlil qilish va baholash, axborotdan kasbiy-pedagogik faoliyatda samarali foydalanish. Birinchi yo'nalish zarur ma'lumotni tez va maqsadli topish qobiliyatini ifodalasa, ikkinchi yo'nalish uning ishonchligi, dolzarbligi va ilmiy qiymatini aniqlashni nazarda tutadi. Uchinchi yo'nalish esa olingan axborotni dars mazmuni, metodik faoliyat va pedagogik muammolarni hal etishda oqilona qo'llash bilan bog'liq.

Shuningdek, axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasining shakllanishida mustaqil ta'lim faoliyati muhim natija berishi kuzatildi. Mustaqil ravishda ilmiy manbalarni izlash, elektron resurslardan foydalanish, mavzuga oid turli qarashlarni o'rganish va yakuniy xulosa tayyorlash talabning izlanish faolligini oshiradi. Bunday faoliyat bo'lajak o'qituvchida o'z bilimini muntazam yangilab borish, yangi axborotlarni o'zlashtirish va ularni kasbiy ehtiyojlariga moslashtirish ko'nikmasini shakllantiradi.



Umuman olganda, tahlil natijalari bo'lajak o'qituvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish birgina axborot texnologiyalarini o'rgatish bilan cheklanmasligini ko'rsatdi. Mazkur jarayon axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash, mustaqil ta'lim, raqamli kompetentlik, kommunikativ faollik va kasbiy tayyorgarlikning uzviy birligi asosida tashkil etilgandagina samarali natija beradi. Demak, oliy ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarni axborotni izlashdan tortib, uni tanqidiy baholash va pedagogik faoliyatda maqsadli qo'llashgacha bo'lgan yaxlit faoliyatga tayyorlash zamonaviy o'qituvchi kompetentligini ta'minlovchi muhim pedagogik shartlardan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishda kompetensiyaviy, muammoli, interfaol va raqamli ta'lim yondashuvlarining imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatdi. Xususan, keys-stadi, munozara, loyiha, mustaqil topshiriqlar va turli axborot manbalarini qiyosiy o'rganishga asoslangan mashg'ulotlar talabalarining mustaqil fikrlashi va axborotga ongli munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv bo'lajak o'qituvchini tayyor axborotni qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, baholovchi va pedagogik faoliyatda samarali qo'llay oladigan mutaxassis sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini rivojlantirishni oliy ta'limning barcha bosqichlarida izchil va tizimli tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda elektron ta'lim resurslari, raqamli platformalar, ilmiy ma'lumotlar bazalari va interfaol texnologiyalardan foydalanish bilan bir qatorda axborot xavfsizligi, manba bilan ishlash madaniyati, akademik halollik va mualliflik huquqi masalalariga ham e'tibor berish zarur. Natijada bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy axborot makonida to'g'ri yo'nalish olish, ishonchli ma'lumotni ajratish, mustaqil qaror qabul qilish va o'z kasbiy faoliyatini axborot asosida takomillashtirish kompetensiyasi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
3. Baydenko V.I. Компетенции в профессиональном образовании: опыт проектирования. - Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.
4. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. - 2003. - №5. - С. 34-42.
5. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. - 2003. - №2. - С. 58-64.
6. Семенов А.Л. Информационные и коммуникационные технологии в общем образовании: теория и практика. - Москва: ИНТ, 2006. - 326 с.
7. Раицкая Л.К. Информационная компетенция преподавателя иностранного языка в высшей школе: сущность, пути формирования // Лингвострановедение: методы анализа, технология обучения. - Москва: МГИМО-Университет, 2008. - С. 142-152.
8. Зайцева О.Б. Формирование информационной компетентности будущих учителей средствами инновационных технологий: дис. ... канд. пед. наук. - Армавир, 2002. - 169 с.
9. Бочарова Л.В. Формирование информационно-коммуникативной компетентности будущего учителя: дис. ... канд. пед. наук. - Курск, 2006. - 210 с.
10. Курбанова А.Т. Talabalarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2021. - 46 b.
11. Urazmetova Sh.A. Raqamli resurslarni modellashirish asosida talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2022. - 44 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.